

УДК 616.89-008.44

***Расулова Мухсина Розиковна***

*Доцент кафедры судебной медицины Самаркандского государственного  
медицинского университета, Ph.D.*

***Юлаева Ирина Андреевна***

*Ассистент кафедры клинической лабораторной диагностики с курсом  
клинической лабораторной диагностики Самаркандского  
государственного медицинского университета.*

### **МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ ПРИНЦИПЫ САМОУБИЙСТВА**

***Аннотация.*** В работе представлены результаты наблюдения за социально значимыми факторами, влияющими на суицидальные действия. Анализировались такие факторы, как: пол, возраст, сезонность (времена года, месяцы) и дни недели.

***Ключевые слова.*** суицид, самоубийство, насильственная смерть, социальная проблема.

UDK 616.89-008.44

***Rasulova Mukhsina Rozikovna***

*Associate Professor, Department of Forensic Medicine, Samarkand State  
Medical University, Ph.D.*

***Yulaeva Irina Andreevna***

*Assistant at the Department of Clinical Laboratory Diagnostics with a  
course of Clinical Laboratory Diagnostics at Samarkand State Medical  
University.*

### **MEDICAL AND SOCIAL PRINCIPLES OF SUICIDE**

***Annotation.*** The paper presents the results of monitoring socially significant factors influencing suicidal actions. Factors such as gender, age, seasonality (seasons, months) and days of the week were analyzed.

***Keywords.*** suicide, violent death, social problem.

**UDK 616.89-008.44**

***Rasulova Muxsina Roziqovna***

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti sud tibbiyoti kafedrası dotsenti.*

*t.f.n.*

***Yulaeva Irina Andreevna***

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinik laboratoriya diagnostikasi  
kursi bilan klinik laboratoriya diagnostikasi kafedrası assistenti.*

## **O‘Z JONIGA QASD QILISH HATTI-HARAKATLARINING TIBBIY- IJTIMOIY TOMOYILLARI.**

***Annotatsiya.*** *Ushbu ilmiy ishda o‘z joniga qasd qilish hatti-harakatlarining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan omillari borasidagi kuzatish natijalari bayon etilgan. Bunda jins, yosh, fasillar va oylar hamda haftaning qaysi kunlarida o‘z joniga qasd qilish hatti-harakatlari sodir etilayotganligi keltirilgan.*

***Kalit so‘zlar.*** *o‘z joniga qasd qilish, suyitsid,zo‘raki o‘lim, ijtimoiy muammo.*

***Kirish.*** O‘z joniga qasd qilish holati ijtimoiy taraqqiyotning barcha davrlarida ham qayd qilingan, biroq hozirgi davrda bu muammo o‘ta dolzarb masalaga aylanib bormoqda. Epidemiologik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘nggi o‘n yilliklarda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida qishloq aholisi o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish darajasi ortib, qishloq va shahar aholisi orasida bu ko‘rsatkich darajasining nisbati oshgan. [1,3].

Rasmiy statistik ma‘lumotlarga ko‘ra erkaklar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish darajasi 36,2 foizga oshgan (100 ming kishiga 34,5 dan 47 taga), ayollarda esa bu ko‘rsatkich 4 foizga (100 ming kishiga 8 dan 7,7 gacha) kamaydi. Shaharlik erkaklar o‘rtasida o‘z joniga qasd qilish darajasi 11,5 foizga o‘sdi (100 ming kishiga 27,7 dan 30,9 gacha), shahar ayollarida esa 18,3 foizga (100 ming

kishiga 7,1 dan 5,8 gacha) kamaydi. Qishloq erkaklari o'rtasida o'z joniga qasd qilish darajasi 93,6 foizga (100 ming kishiga 48,4 dan 93,7 gacha), qishloq ayollarida esa 35,4 foizga (100 ming kishiga 9,9 dan 13,4 ga) oshdi. Respublikamizning turli hududlarida qishloq erkaklari o'rtasida o'z joniga qasd qilish darajasining o'sish sur'ati sezilarli darajada farq qiladi.

O'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining ijtimoiy ahamiyati oldini olish strategiyasini ishlab chiqish uchun ushbu hodisani o'rganishni talab qiladi. Shu sabablarga ko'ra ularning tafsilotlarini, tarkibini va o'z joniga qasd qilishga zamin yaratuvchi omillarini o'rganish dolzarb masala xisoblanadi.

**Ishning maqsadi.** O'z joniga qasd qilish holati tarkibi va ularga zamin yaratuvchi ayrim omillarni o'rganish.

**Tekshiruv materiallari.** Samarqand viloyati miqiyosida 2020 – 2021 yillar maboynida qayd qilingan o'z joniga qasd qilish holatlari yuzasidan o'tkazilgan sud – tibbiy ekspertiza materiallari o'rganilib, retrospektiv tahlil qilindi.

**Olingan natijalar.** Viloyat miqiyosida 2020 – 2021 yillarda o'lim holatlari buyicha o'tkazilgan 1798 ta sud-tibbiy ekspertizaning 1471 tasi (81,8%) zo'raki o'lim bo'lib, shundan 216 ta (15%) holat o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq bo'lgan.

Qayd etilgan 216 ta o'z joniga qasd qilish holatlaridan mexanik asfiksiya – 180ta (83%), rels travmasi – 13 ta (6%), zaharlanish – 10 ta (5%), termik omil – 6 ta (3%) va boshqa turlari – 4ta (2%) ni tashkil etgan. 2020 yili jami 736 ta zo'raki o'limning 102 ta(14%)si va 2021 yilda jami 735ta zo'raki o'limning 114 ta (16%)si o'z joniga qasd qilish bilan bog'liq bo'lgan.

O'z joniga qasd qilish holatlaridan eng ko'p kuzatilgani sirtmoqda osilish natijasidagi mexanik asfiksiya bo'lib – 180 tani tashkil qilgan. Ulardan yillar bo'yicha: 2020 yilda - 83ta, 2021 yilda - 97 tani tashkil qilgan. Bu holatni jins bo'yicha tahlil qilinganda 2020 yilda 60 ta (72%) holat erkaklarda va 23 ta

(28%) holat ayollarda, 2021 yilda esa 56 ta holat (58%) erkaklarda va 41 ta holat (42%) ayollarda qayd qilindi.

Zaharlanishlar bilan bog‘liq o‘z joniga qasd qilish 10 (5%) ta bo‘lib, yillar va jins bo‘yicha - 2020 yilda 3 ta holat erkaklarda va 1 ta holat ayollarda, 2021 yilda 2 ta holat erkaklarda va 4 ta holat ayollarda kuzatildi.

Termik omil natijasidagi o‘z joniga qasd qilish holatlari jami 9 tani tashkil qildi, shundan 2020 yilda 4 ta, 2021 yilda 5 ta holatda kuzatilgan bo‘lib, ularning barchasi ayol jinsli o‘z joniga qasd qilish holatlaridir.

Rels travmalari bilan bog‘liq o‘z joniga qasd qilishlar 13 ta (6%) ni tashkil qilib, 2020 yilda 7 ta holatda erkaklarda va 1 ta ayollarda, 2021 yilda esa 2 ta holatda erkaklarda va 3 ta ayollarda kuzatildi. Kuzatilgan o‘z joniga qasd qilish holatlaridan 16,2% holatda jabrlangan shaxslarda turli xil darajadagi alkogol mastlik holati aniqlandi, 2020 yilda bu kursatgich 10%, 2021 yilga kelib esa 22%ni tashkil qildi.

Yosh bo‘yicha tahlil qilganimizda, o‘z joniga qasd qilish eng ko‘p 17-35 yoshdagilarda kuzatilib -125 ta (58%) holatda, keyingi o‘rinda 36-60 yoshlilar - 64ta (30%), 9-16 yoshlilar 16ta (7%) va 60 yoshdan kattalar 11ta (5%) holatni tashkil qildi. O‘z joniga qasd qilish holatlarni mavsumiylikini tahlil qilganimizda, 2020 yilda erkaklarda may va iyun oylarida eng yuqori bo‘lgan bo‘lsa, ayollarda iyun oyida ko‘paygan. 2021 yilda esa erkaklarda iyul oyida, ayollarda esa fevral oyida ko‘paygan.

**Xulosa.** O‘z joniga qasd qilish bilan bog‘liq zo‘raki o‘lim holatlarining aksariyati erkak jinsli shaxslar tomonidan, asosan o‘z – o‘zini osish orqali amalga oshirilgan. Bu holat fasllar bo‘yicha baxor va yoz oylarida ko‘paygan, hafta kunlaridan erkaklarda payshanba kuni, ayollarda esa chorshanba kunlari ko‘proq sodir etilgan. Termik kuyish bilan bogliq o‘z joniga qasd qilishlarning barchasi ayol jinsli shaxslarda kuzatilgan. Yosh bo‘yicha o‘z joniga qasd qilishlar eng ko‘p 17-35 yoshdagilarda kuzatilib, 58% ni tashkil qildi. O‘z joniga

qasd qilish holatlarning 16,2%da turli darajadagi alkogol mastlik holati aniqlandi.

### **Adabiyotlar.**

1. Давранова А. Э. и др. Судебно-медицинская экспертиза потерпевших с травмами глаза //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2024. – Т. 2. – №. 1. – С. 10-16.
2. Индиаминов С. И., Мардонов Т. М., Расулова М. Р. ХАРАКТЕР И ОСОБЕННОСТИ МЕХАНИЧЕСКИХ ПОВРЕЖДЕНИЙ КОМПЛЕКСА ГОРТАНИ //ВЕСТНИК ТМА № 1, 2019. – 2019. – С. 69.
3. Индиаминов С. И., Расулова М. Р. Особенности переломов костей носа в практике судебно-медицинской экспертизы //Судебная медицина. – 2018. – Т. 4. – №. 3. – С. 24-27.
4. Индиаминов С., Расулова М. Экспертная оценка механических повреждения органа слуха в практике судебно-медицинской экспертизы //Журнал проблемы биологии и медицины. – 2019. – №. 1 (107). – С. 152-153.
5. Индиаминов С., Расулова М., Умаров А. Механизм травмы при переломах костей носа //Журнал вестник врача. – 2019. – Т. 1. – №. 1. – С. 31-35.
6. Расулова М. Р., Ахадов З. Ш., Давронов С. Ф. ДИАГНОСТИКА ДАВНОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА СОВРЕМЕННЫМИ МЕТОДАМИ ИССЛЕДОВАНИЙ //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 48-52.
7. Расулова М. Р., Мардонов Т. М., Давранова А. Э. ОСОБЕННОСТИ ПОВРЕЖДЕНИЙ КОМПЛЕКСА ГОРТАНИ ОТ СДАВЛЕНИЯ ШЕИ //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 28-35.

8. Расулова М. Р., Сайдалиева М. З., Бекмирзаева З. Т. УСТАНОВЛЕНИЕ ДАВНОСТИ ПЕРЕЛОМОВ КОСТЕЙ НОСА МЕТОДАМИ ЛУЧЕВОЙ ДИАГНОСТИКИ //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 4. – С. 28-31.
9. Расулова М., Турдиев Ф. Показатели рентгеновской денситометрии у детей с асептическим некрозом головки бедренной кости //Современная медицина глазами молодых ученых. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 85-86.